



Tadqiqot **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
16-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-16**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-16**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Akbarova Feruza Davlataliyevna TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI	7
2. Asadova Soxiba Xudoyorjonovna PHYTON DASTURLASH TILI YARATILISH TARIXI	9
3. Temirova Ruqiya Begiyevna TEKNOLOGIYA DARSIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH	11
4. Rustamov O'ktam Sayfiyevich TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KASBIY QIZIQISHLARINI SHAKILLANTIRISH	13



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ ДАРSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISHNING O'RNI

Namangan viloyati, Namangan tuman,
37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Texnologiya fani o'qituvchisi
Akbarova Feruza Davlataliyevna

Annotatsiya: Texnologiya fani o'qituvchisi dars davomida o'zining mahoratini qay tarzda oshirib borishi va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullarini tushinishi to'g'risida.

Kalit soz'lar: kommunikativlik, kreativlik, tashkilotchilik persektivlik, (empatiya, intuisiya), reflektivlik.

Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Har qaysi sohada, u qaysi yo'nalishda bo'lmasin, uni rivojlantiruvchi, yuqori darajalarga olib chiquvchi mutaxassis bo'ladi. Respublikamizda xalq ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Bugungi davr o'qituvchisi oldida turgan muhim – vazifa o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishdan iborat. Shu bois ham ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim – tarbiya berish jarayonini takomillashtirishni talab etmoqda. Ilmiy – texnik taraqqiyot jadallik bilan rivojlanayotgan ayni bir paytda mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlar tayyorlash uchun o'quvchilarning to'g'ri va ongli kasb tanlashni, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishi kompetensiyasini o'stirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Maktabda ta'lim tarbiyani yuqori saviyada olib borilishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi oldiga qo'yiladigan muhim talablardan biri o'zi o'qiyotgan fanini chuqur bilishi, uning metodikasini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lishi kerak. Chunki fanni va uning nazariyasini chuqur bilish, qiziqarli qilib yetkaza olish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, o'quvchilarning obro'sini ko'taradi. O'quvchilar o'qituvchi bilimini va ularni yetkaza olish qobiliyatini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoiyligini ham taqdirlashadi.

Har bir o'qituvchi darsda zamon bilan hamnafas bo'lishi, dars davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, o'quvchilarni darsga bo'lgan qizishlarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Maktablarda darslarni yoritishda o'quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish, uni tarkibini shakllantirish, boshqacha aytganda, ular doim iste'mol qiladigan mahsulotlarning qanday jarayonlarda o'tishini aniq tasavvur qila olmaydi. O'qituvchi o'z pedagogik mahorati orqali o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni boyitib, amaliy jarayonlar bilan bog'lashi zarur. Men bu muammoning yechimini yengillashtirish uchun quyudagi pedagogik usulni taklif qilaman.

“Bu nimadan yasalgan?” usuli.

Qo'llanilishi: ushbu pedagogik usul nazariy va amaliy mashg'ulotlar uyg'unlashgan texnologiya darsining ko'proq mustahkamlash qismiga yoki darsga kirishish qismida ushbu mahsulot yoki jihoz haqida birlamchi ma'lumotga ega yoki ega emasligini bilishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, turli xildagi taomlarni tayyorlashda, tikiladigan kiyimlar yoki yasaladigan jihozlarni tayyorlashda qo'llaniladi.

Pedagogik usulning vazifasi: kasbiy malakani oshirishda xizmat qiluvchi ushbu usul orqali tayyorlanadigan har bir jihoz yoki buyumning nimadan yasalganligini o'rganish, taomlar



tayyorlashda me'yorni shakllantirishdan iborat. Bu usulni qo'llash orqali o'quvchilardan arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish ko'nikmasini shakllantirish, ularni mustaqil tadbirkorlik qilish uchun g'oyalar yaratishga o'rgatish, o'z imkoniyatlarini o'rinli baholay olish imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik usulning maqsadi: dars vazifasidan kelib chiqib, o'quvchilarga tanlash imkoniyatini yaratish, imkoniyatlardan o'rinli foydalanish, to'g'ri qaror qabul qilish uchun sharoit yaratish. Kasbiy bilim va ko'nikma yaratish.

Usulni qo'llashning afzalligi.

Usul sodda bo'lib, o'quvchilarda mahsulot yoki taom tayyorlashda zarur jihozlarni bilishda, estetik didni shakllantirishda qulaydir. Ushbu usulni darsni faollashtirish, o'quvchilarni mustaqil ishlashga va mustaqil qaror qabul qilishda o'rgatishda qulaydir. Bu usulda barcha yoshdagi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan amaliy darslarda foydalanish mumkin. Masalan, 5-sinfda "Qiyiqcha tikish" mavzusida: o'quvchilar 10 ming so'mga tayyor bo'ladigan qiyiqcha tayyorlashlari shart. Kerakli jihozlar: Mato 90X90 sm, igna, qaychi, santimetr lentasi, angishvona, chizg'ich, turli rangdagi mulina iplari, ko'zmunchoq.

Har bir guruh o'quvchilari tikayotgan qiyiqchasi uchun kerakli bo'lgan ish quroli va xom-ashyoni 10 min so'mga tanlaydi. Bu darsda ham "Bu nimadan yasalgan?" usuli darsning boshlanishida, ya'ni hozirlik jarayonida qo'llaniladi.

O'quvchi – qizlarga milliy kasb – hunarlarimizdan sanalgan chevarchilik sirlarini o'rgatishdan avval ularga:

- "kasb – hunar", "hunarmand", soz'larining ma'nosini, hunarmandchilik sirlarining avloddan – avlodga meros bo'lib o'tib kelishini hayotiy va tarixiy dalillar, misollar asosida puxta tushuntriish;

- Chevarchilikka nisbatan qiziqish, ishtiyoq va havas uyg'otish, to'garaklar ishiga el ichida tanilgan mohir – chevarlar, kasb – hunar ustalarini taklif qilish, ular bilan mahorat darslarini o'tish;

- Chevarchilik nafaqat orastalik, balki oila byudjeti, farovonligi uchun munosib hissa qo'shish xususiyati bilan o'quvchi – qizlar hayotida muhim o'rin egallashini chuqur anglatish zarur.

Xulosa, o'rni ta'kidlash joizki, zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi va targ'ibotchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.P.Sulaymonov. "Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv – tarbiya jarayonining sifat va samaradorligi: muammaslar va yechimlar" Toshkent – 2017 y.

2. A.Jalolov "Kasb qanday tanlanadi" Baxt - saodatga intiluvchilar uchun Toshkent "Yangi asr avlodi" - 2010 y.

3. Ziyonet.uz.



PHYTON DASTURLASH TILI YARATILISH TARIXI

Asadova Soxiba Xudoyorjonovna
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
42-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Informatika va AT fani o'qituvchisi
Telefon(+998993879611)

Annotatsiya: Maqolada Phyton dasturlash tili yaratilish tarixi va imkoniyatlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "OYDT", "Break", "False", "From", "Else".

Python dasturlash tilini yaratilishi 1980-yil oxiri 1990-yil boshlaridan boshlangan. O'sha paytlarda uncha taniqli bo'lmagan Gollandiyaning CWI instituti xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABC tili Basic tili o'rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o'zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g'oyalari o'zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, C++, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko'plab xususiyatlarini o'ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni internet orqali tarqata boshladi. Bu paytda o'zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan internetda to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O'sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirki" komediyasining muxlisi edi va o'zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas).

Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko'paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991-yil birinchi OYD(Obyektga Yo'naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo'ldi.

Bir qancha vaqt o'tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko'chib o'tdi. Uni CNRI korporatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o'sha yerda ishladi va korporatsiya shug'ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo'sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo'lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti korporatsiyani proektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqti qolmayotgandi. Shunda u o'ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o'sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo'llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo'yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo'ldi.

Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo'lsa, 2.0 versiyasi 2000-yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo'llaniladi.

Python dasturlash tili imkoniyatlari.

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Pythonning o'ziga xosligi

1. Oddiy, o'rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minot.

2. Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.

3. Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi.

4. Interpretatsiya(Интерпретируемый) qilinadigan til.

5. Kengayishga (Расширяемый) moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xohlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi.

6. Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.

7. xml/html fayllar bilan ishlash



8. http so`rovlari bilan ishlash
9. GUI(grafik interfeys)
10. Web ssenariy tuzish
11. FTP bilan ishlash
12. Rasmi audio video fayllar bilan ishlash
13. Robot texnikada

Matematik va ilmiy hisoblashlarni programmalash

14. Pythonni katta proyektlarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo`q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan programmalash tillari orasida eng yaxshisidir.

Phyton dasturlash tilida programmalar tuzishda ishlatiladigan kalit so`zlar quyidagilar:

False – yolg`on. True - rost. None - “bo`sh” obyekt. and – mantiqiy VA amali.

with / as – kontekst menejeri. break –tsikldan chiqish. class – metod va atributlarda iborat. continue – tsikldan keyingi iteratsiyaga o`tish. def – funksiyani aniqlash.

del – obyektни yo`qotish. elif – aks holda, agar. else – for/else yoki if/elsega qarang. for – for tsikli. from – moduldan bir nechta funksiyani import qilish.

if - agar. import – moduldan import. is –xotirani bitta joyida 2 ta obyektни jo`natsa bo`ladimi.

lambda –yashirin funksiyani aniqlash. not –mantiqiy inkor amali. or –mantiqiy Yoki amali.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Марк Лутц. Программирование на Python. 1995г.
2. Девид Бизли. Python -Санкт-Петербург: МЭИ, 2008. – Часть III.
3. Прохоренок Н.А. Python.Самое необходимое. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2011, –416 с.

Internet manbalari manzili :

1. www.python.org
2. ww.dasturchi.uz



TEKNOLOGIYA DARSIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH.

Temirova Ruqiya Begiyevna

Kogon tuman 1-umumta'lim
maktabining texnologiya fani o'qituvchisi
Tel: +998914039391

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uchun ularda kasbga motivatsiya uyg'otish to'g'risida, bu borada bobokalonlarimiz fikri keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kasb-hunar, hunarmandchilik, buyuk ajdodlar;

Mamlakatimizda ta'lim olishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib har bir fan bo'yicha darsliklarning yangi avlodi yaratildi, hamda amaliyotga joriy etildi. Xuddi shuningdek "texnologiya" fanida ham muhim o'zgarishlar bo'ldi. 5-7-sinflarda ham o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib borilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishning maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, kasbga qiziqish va mahnatsevarlikni shakllantirish, kasb tanlashga tayyorlash orqali amalga oshirib boriladi.

Kasb-insonning ruhiy, ma'naviy hamda jismoniy imkoniyatlarini ishlata olishdir. Qadimda ham bobokalonlarimiz farzandlarining biror kasb-hunar egallashi uchun qayg'urganlar. Jumladan Abu Nasr Forobiy kasb-hunar haqida quyidagi fikrlarni aytadi: Inson biro-bir sohasini egallash uchun faqat tug'ma qobiliyati kifoya emas, kasb-hunarda kamolotga ham yetish kerak.

Kasb tanlashda o'quvchilarning qobiliyati va moyilligi har taraflama rivojlantirishda o'qituvchi quyidagi amal qilishi zarur:

1. Kasb tanlash masalalarini hisobga olgan holda, har bir mavzuni o'quvchilarga yetkazishning shakl va metodlarini aniqlashlari;
2. O'quvchilarning ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha o'zining vazifalari va mazkur fanlarning roli va tutgan o'rinlarini aniq va to'g'ri tushunishi;
3. Fanlarga bo'lgan qiziqishlari bilan kasblarga bo'lgan qiziqishlari o'rtasidagi dialektik o'zaro bog'lanishlarni o'rnatishi kerak.

Ma'lumki, Texnologiya fani bo'yicha kasb-hunarga yo'naltirish o'qituvchining kundalik faoliyati uchun yollanma rolini bajarishi kerak.

O'qituvchilarning kasb-hunar tanlash ishini olib borishdagi maqsadi – o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish ulardagi qiziqish, moyilliklarini o'rganish hamda kasblarni egallashga intilishini taminlashdir. Bunday samarali ishlarni olib borishda avvalo pedagogda kompetentlik mavjud bo'lishi kerak.

Kompetentlik ma'lum bir sohadaki bilim va tajriba demakdir. Kompetentli o'qituvchi esa eng avvalo psixologiya-pedagogika bilimlariga ega bo'ladi. Shunday ekan hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiya asoslarida bilim, ko'nikma malakalarini shakllantirib borish lozim. Texnologiya fani darslarida o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar ko'proq tashkil etilib ulardagi qiziqishlarni va moyilliklarini rivojlantirib borishimiz kerak.

Zamonaviy sharoitda o'quvchilarning bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadga muvofiqdir. Bolalarning xarakterlariga e'tibor bergan holda kreativ yondashish, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, bahs-munozara, sinkveyn, tarmoqlash, domino va boshqa metodlardan foydalanib ta'lim-tarbiya berish lozim. Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan ayrim metodlar didaktik o'yinlar deb yuritiladi.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin ravnaq topib boradi. O'zbekistondagi hunarmandchilik turlari 150dan ziyod bo'lib, bular hunarmandchilikning tarmoq strukturasi tashkil etadi.

Insonning bolalik orzulari o'lmas ekan agar astoydil harakat qilsa albatta ro'yobga chiqararkan. Shunday ekan demak biz qizlarimizni kelajakda yaxshi pazanda, tikuvchi, hunarmand qilib tarbiyalashimiz lozim. Kasb-hunarlar juda xilma-xildir. Ularni to'g'ri tanlash insonning o'ziga bog'liqdir.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida "Ey farzand ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha



foydasiz bo’lur va hech kishiga naf yetkurmas”deb yozilgan. Xuddi shunday buyuk shoir Alisher Navoiy o’z g’azallarida insonni vaqtini bekor o’tkazmay ilm hunar egallashga chaqiradi “Ilm kasbini qildi to joni bor, hunar o’rgandi unga-ki imkoni bor”. Demak bunda o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirib yurtimizga yetuk insonlar qilib tarbiyalashimiz lozim. Hozirgi kunda O’zbekistonimizda yoshlar ma’naviatini yuksaltirish va ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo’yicha “5ta muhim tashabbus” bo’yicha muhim ishlar ko’rgazma va tanlovlar olib borilmoqda. Bu tashabbusning 5-yo’nalishi xususan texnologiya fani o’qituvchilariga tegishli bo’lib ular ham tanlovlarga faol ishtirok etib o’quvchilari bilan birgalikda o’zlarining kasb mahoratlarini namoyon etmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyonet axborot ta’lim tarmog’i.
2. Sattarova Z., Abdusalomova N., Ahmedova N. Texnologiya: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T/: “O’zbekiston”, 2019 y
3. Tehnologiya-Vikipediya.



TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KASBIY QIZIQISHLARINI SHAKILLANTIRISH

Rustamov O'ktam Sayfiyevich
Navoiy v, Qiziltepa t, 24-umumiy
o'rta ta'lim maktabi texnologiya
fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga texnologiya darslarini 1-4-sinflar, 5-7-sinflar va 8-9-sinflar kesimida o'qitilishini bosqichli tarzda amalga oshirish, "to'g'ri kasb tanlash" tushunchasini o'rgatish masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mehnatga tayyorlash, qiziqtirish, kasb-hunarga yo'llash, sifdan tashqari ishlar, film va sayohatlar, maktab, o'quv xonasi, oila.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslarini va darsdan tashqari ishlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda eng muhim vazifalardan biri sifatida avvalo uni erkin fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida shakllantirish, ularning qiziqishiga ko'ra kasb – hunarga yo'naltirish muammosi hal etilishi lozim bo'ladi. Bu muammolarni, asosan, ta'lim jarayonida, ayniqsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida hal etish imkonoyatlari katta. O'quvchilarning qiziqishiga ko'ra kasb-hunarga yo'naltirishning bir qator qirralari keng miqyosda tadqiq qilingan va ko'plab natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq bunda yoshlarning aksariyat qismi muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, respublikamizda amalga oshirilayotgan texnologiya fani doirasida, bevosita o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari to'liq yoritilib berilmagan tamonlari talaygina. Ta'lim islohatlarining hozirgi bosqichida texnologiya fani yo'nalishlari o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra kasb hunarga yo'naltirish bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkiliy jarayonini amalga oshirish va unda erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash muammosi alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy bosqichi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan boshlanadi.

O'quvchi hayotida bu davr eng mas'uliyatli payt sanalib, unda asta-sekin biror-bir kasbga qiziqish malakalari shakllana boshlaydi. Bu jarayonda o'quvchilarning qobiliyatlari va kasbiy qiziqishini ta'lim-tarbiya bilan bog'lagan holda bosqichma- bosqich shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarning yoshidagi farq hamda harakteridagi o'ziga xos xususiyatlar inobatga olinadi.

Kasbga qiziqishni shakllantirishni, turli suxbatlar o'tkazish sayohatlar uyushtirish, filmlar ko'rish orqali amalga oshirish mumkin. Suhbatlarni rejalashtirish davomida o'quvchilarda bo'lajak kasbga ijobiy munosabatni maqsadli yo'naltirishga erishish lozim. Maktab islohatlariga muvofiq kasbga yo'llash ishining maqsadi va hajmi birmuncha o'zgaradi. Endi maktab, oila, baza tashkilotlari o'quvchilarni faqatgina mehnatga va kasb tanlashga tayyorlamay, balki majburiy kasbiy tayyorgarlikning kiritilishidan avvalroq asosli kasb tanlanishga erishishlar kerak. Bunda 8-9-sinf o'quvchilari bilan kasbga yo'llash ishlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maktabdagi kasbga yo'naltirish ishlari tizimining asosiysini texnologiya darslari tashkil etib, bunda o'quvchilarga ko'plab kasb, mutaxassislik va ixtisoslik bo'yicha atroflicha ma'lumot berib boriladi. Texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarning yoshi, bilimi, ko'nikma va malakalarini hamda hudud talablarini hisobga olgan holda bir necha bosqichlarda amalga oshirish kerak.

1-bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib boriladi. Ko'zlangan maqsad o'quvchilarning moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga bo'lgan qiziqishlarini va unga ijobiy munosabatda bo'lish hislarini rivojlantirishdan iborat. Eng muhimi, ularda ishchi degan nomni hurmat qilish, qo'lidan keladigan mehnat turini bajarib, atrofidagi kishilarni quvontirish va o'z mehnatidan ma'naviy zavq olish hislarini rivojlantirishga erishishdir.

2-bosqichda 5-6-sinf o'quvchilari bilan ish olib boriladi. Birinchi bosqichda shakllangan mehnatga bo'lgan iste'dod nashidasini amalda bajarib ko'rishga undovchi bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muranov.B.I. Umum ta'lim maktablarida mehnat ta'lim darslarini taxminiy rejalashtirish.- T. 1996.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(16-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000